



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA AHOLISINING TURMUSH TARZIDAGI O'ZGARISHLAR

Ziyayev Husan Niyoz o'g'li

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Tarix fakulteti
arxeologiya kafedrası labaranti*

Turkiya Birinchi jahon urushidan mag'lub davlat sifatida chiqdi. Mamlakat maorifi, tibbiyoti, iqtisodi o'ta zaiflashgan, imperiya qulagan va Yevropa davlatlari Turkiyani qaram davlatga aylantirgandi. Angliya, Gresiya va Fransiya Turkiyani parchalab tashlab, uning mustaqil davlat sifatida yashashiga nuqta qo'yishni istadi. Bu masala bilan to'rt mamlakatdan iborat kengash Gresiya tarafiga Antanta tarkibida urush harakatlarida ishtirok etgani uchun sovg'a sifatida Izmirni egallash huquqini topshirdi.

1919 yilning bahorida inglizlar Onado'lining janubiy sharqiy qismini, fransuzlar shimoliy Frakiyani, greklar Izmirni bo'ysundirdi. Usmonli imperiyasining so'nggi hukmdori Sulton Mahmud VI hych nima qila olmasdi. Shu paytda yosh zobit Mustafo Kamol poshsho o'z zimmasiga mamlakatni himoya qilish mas'uliyatini oldi. 1919 yilning yoz oyida Sivasda turk millatlari kongressini chaqirdi va kengashga uning o'zi raislik qildi. Majlisda Sulton Mahmud VI g'arbning qo'lidagi qo'g'irchoq sulton ekani bois, uning farmonlari noqonuniy ekani va «Turkiya o'z chegaralari doirasida bo'linmas va ajralmasligi» ta'kidlandi hamda millat g'arblik bosqinchilarga qarshi kurashishga chaqirildi. Mustaqillik uchun kurash 1919 yilning 15-may sanasida grek qo'shinlari Smirna (Izmir) shahriga qo'shin kiritdi. Izmir aholisining aksari greklar ekani bois shaharliklar grek qo'shinlarini ozodlik elchilari sifatida qarshi oldi. Sal avvalroq Italiya Smirnani o'zining okkupasion hududi sifatida e'lon qilgan edi, Gresiya hukumati bunga javoban Smirnaga o'z qo'shinlarini kiritdi. Italyan hukumatining provakasion siyosati natijasida grek va turklar orasida qurbonlar bo'ldi. Biroq Turkiyadagi vaziyat murakkabligicha qolayotgan, hych kim hali Turkiya mustaqilligini saqlab qolishga intilmas edi.

Shunday vaziyatda Mustafo Kamol poshsho tarqoq turk zobitlari, milliy ziyolilarini birlashtirib, bosqinchilarga qarshi kurashga kirishib ketdi. Gresiya Ushoq, Bursa, Bandirma, Adirna kabi aholi punktlarini egallaydi, lekin Turkiya ichkarisiga yurish qilishga ittifoqchilari roziligini ololmagach, harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. Bu orada Angliya va Fransiya Sulton Mahmud VI ni Kamol poshsho bilan



murosa qilgan holda yangi parlamentga saylovlar e'lon qilishga ko'ndirdi. Saylov natijalariga ko'ra, Mustafa Kamol poshshoning tarafdorlari parlamentda ko'pchilik ovozga ega bo'ldi.

1920 yilning 28 yanvar sanasida ingliz hukumatining bosimi ostida Anqarada o'tkazilishi belgilangan majlis Anqarada emas, Istanbulda o'tkazildi. Kengashda Turkiyaning mustaqilligi haqida deklarasiya qabul qilindi. Deklarasiyaning 6-moddasiga binoan Turkiyaning Qora dengizdagi qirg'oqlari ham turk mulki, Turkiya qo'l ostidagi arab millatlarining kelajagi plebissit orqali hal qilinishi belgilab qo'yildi. Turklar istiqomat qiladigan hududlar esa Turkiya nazoratida qolishi ta'kidlandi. Bu hudud ayni paytdagi Turkiyaning hududi sanaladi. Bunga javoban Antanta qo'shinlari Konstantinopolni va Qora dengiz sohillarini ishg'ol qildi. Anqarada Mustafa Kamol o'z qo'shinini yig'a boshlaydi. Biroq qo'shinga qurol-yarog' yetishmasdi. Mustafa Kamol bolsheviklar bilan muloqot o'tkazdi va Turkiyada kommunistik mafkuraga asoslangan davlat qurmoqchi ekanini ma'lum qildi. Bu o'ziga xos ayyorona diplomatiya ham edi¹. Bolsheviklar Rossiyasi Turkiyaga qurol-yarog' va moddiy yordam yetkazib bera boshlaydi. 1922 yilga kelib, turk hukumati aksar antantachilarni mamlakatdan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Biroq greklarga qarshi kurash hali to'xtamagan edi. Shunga qaramasdan, Mustafa Kamol hukumati 1923 yil poytaxti Anqara bo'lgan Turkiya respublikasi tashkil qilinganini e'lon qildi. Mazkur voqyeadan so'ng, Gresiya va Turkiya o'rtasida aholini ayirboshlash kelishuvi imzolandi. Gresiyadagi turklar Turkiyaga, Turkiyadagi greklar Gresiyaga ko'chib o'tishiga ruxsat berildi. Respublika e'lon qilinishi bilan turk lirasi – milliy valyuta qabul qilindi. Yangi mamlakatning prezidentligiga Mustafa Kamol saylandi.

Prezident Mustafa Kamol Turkiya iqtisodiyotini izga solish maqsadida bir qator siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy islohotlar o'tkaza boshlaydi. Turkiyadagi bu islohotlar keyinchalik kamolchilik islohotlari nomi ostida «Atatürk Devrimleri» degan nom bilan ham mashhur bo'ldi.

Islohotlarning bosh maqsadi Turkiyani g'arbdagi islohotlarni Turkiyada joriy etish orqali Turkiyani dunyoviy davlatga aylantirish edi. Islohot shu darajada amalga oshirildiki, natijada, Turkiyada Usmonlilar imperiyasidagi qadriyatlar tezlikda unutila boshlandi. Islohotlar natijasida 1924 yilda yangi Turkiya konstitusiyasi qabul qilindi. Mustafa Kamol islohotlarini ba'zi tarixchilar 1839 yilda boshlangan Tanzimot davri

¹ Жельтяков А. Изучения истории, экономики и культуры Турции в Ленинграде за 50 лет (1917-1967). Тюркологический сборник. М-1980. С-177-191.



islohotlari bilan mengzaydi². Tanzimot 1876 yilda dastlabki turk konstitusiyasini qabul qilishi bilan nihoyasiga yetgan edi. Keyinchalik prezident Turg'ut O'zal davrida Turkiyadagi iqtisodiy, siyosiy islohotlar mamlakatning Yevropa integrasiyalashuvi ortidan yuz berdi. 1987 yildagi mazkur islohotlar Turg'ut O'zal islohotlari ham deb talqin qilindi. Mustafo Kamol islohotlarini e'lon qilar ekan, Jan Jak Russo va Monteskyoning cheklangan liberalizm g'oyalaridan ilhomlangandi. Bu islohotlar hozirda ham Turkiyada kamolchilik doktrinasini sifatida talqin qilinadi. Kamolchilikning asosiy quyidagi olti shakli 1937 yildagi Turkiya konstitusiyasida ham o'z ifodasini topdi. Bular:

1. Xalqchilik
2. Respublikachilik
3. Milliylik
4. Dunyoviylik
5. Etatizm (iqtisodda davlat nazorati).

G'arbiy Osiyoning o'simlik va hayvonot dunyosi ham xilma- xildir, lekin eng qadimiy ibtidoiy davrga nisbatan ancha o'zgargan. O'z davrida boy o'rmon va hayvonlarga ega bo'lgan bepoyon G'arbiy Osiyo o'lkalari hozirda nisbatan ancha qashshoqlashib qolgan. Ayniqsa, o'simlik dunyosi juda kambag'al, chunki aholining asosiy yoqilg'isi o'tin bo'lganligi tufayli ko'p o'rmonlar asrlar davomida chopib, o'tin uchun yo'qotilgan, tabiiyki, undagi hayvonlar ham o'z-o'zidan kamayib ketgan. Faqat Qora dengiz sohillaridagi yozi nam, mayin iqlimli hududlarda yashil daraxtzorlar, baland tog' tizmalaridagi o'rmonlar saqlanib qolgan. Egey va O'rta dengiz sohillarida ham qisman daraxtli o'rmonlar va butazorlar mavjud.

Antropologik jihatdan G'arbiy Osiyo xalqlari *asosan* yevropoid irqiga oid. Ularga xos belgilar: sochi va ko'zi qora, badani bug'doy rangli, burni O'rtacha, labi kichkina yoki bir oz qalinroq. Ayrim oldosiyolik yoki armanoid tipidagilar bosh suyagi va burnining kattaligi (burgutsimon burunli), yuzi va badanining sermo'yiligi bilan ajralib turadi. Aksincha, O'rta dengiz tipi yoki hind-pomir tipi *kam mo'y*, mayin yuzliligi va nozik labi, burnining kichikligi kabi belgilari bilan farq qiladi. *Birinchi*, ya'ni Old Osiyo tipiga asosan turklar, o'troq arablar, kurdlar, armanlar va yahudiylar, *ikkinnisiga*, ya'ni hind-pomir tipiga Afg'oniston xalqlarining ko'pchiligi va qisman eron aholisi, *uchinchi o'rta* dengiz tipiga garbiy turklar va ko'chmanchi arablar kiradi. Ba'zi etnoslar (xazoriylar, turk va arablar)da qisman mongoloid, ayrim

² Жельтяков А. Изучения истории, экономики и культуры Турции в Ленинграде за 50 лет (1917-1967). Тюркологический сборник. М-1980. С-177-191.



guruhlar (Janubiy Arabiston arablari)da negroid, Afg'oniston va Eron *bragunlarida* avstraloid belgilari seziladi.

Mazkur mintaqada joylashgan 12 ta arab mamlakatlarida yashovchi xalkdar, qo'shni Isroil, Turkiya va Erondagi arablar semit tillarida so'zlashadilar. Ammo adabiy va rasmiy davlat tilida so'zlashadigan tiplar orasida farq bor, xalq ichida asosan uch sheva (Suriya, Iroq va Araviya) mavjud bo'lib fanda aniqlangan semit tipidagi G'arbiy Osiyo aholisining 30 foizini tashkil qiladi. Eroniy tillarda *forslar, pushtunlar, tojiklar, kurdlar, balujiylar, lurlar, baxtiyorlar, xazoriylar* va boshqa ayrim etnik guruhlar so'zlashadi. , turkiy til oilasiga mansub (turklar, ozarbayjonlar, o'zbeklar, turkmanlar, qashqarlar va ayrim mayda guruhlar). Boshqa tillarda gapiradigan xalklardan Kiprdagi *greklar*, ko'p mamlakatlarda tarqoq holda joylashgan *armanlar, gruzinlar, lazlar, hindlar* va boshqa elatlar har xil til oilasiga mansub vakillardir. Ammo G'arbiy Osiyodagi hozirgi til turkumlarining bittasi ham mahalliy tub shllarga kirmaydi. *Semit-xomit, hind-yevropa* va *turk* tillari kirib kelgunga qadar bu hududlarda uzoq o'tmishda yo'qolib ketgan qadimgi davlatlarning tillari tarqalgan edi. Shulardan tarixda ma'lumlari *shumer, elamit, kassit, lo'libey, kaspiy, kavkaz* tillariga yaqin bo'lgan *hatti, xurrit* va *urartu* tillaridir. Semit-xomit tillari eramizdan avvalgi IV ming yilliklarda G'arbiy Osiyoga Shimoliy Afrikadan kirib kelib mahalliy tillar bilan aralashib ketgan. Ular III—II ming yilliklarda akkad tili va uning asosiy shevasi — *bobil, ossuriya* va *oromey* tillarida namoyon bo'ladi. O'sha davrlarda Bolqon yarim oroli va Kavkaz tomonidan *hindevropa* tillari o'ta boshlaydi. *Oromey* tili esa eramizning boshlarida butun G'arbiy Osiyogacha yetib borgan.

1991 yilning oxirlariga qadar jahonda turkiy tilda so'zlashuvchi yagona mustaqil davlat Turkiya bo'lgan, boshqa beshta davlat esa sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalar edi. Shuning uchun ham mazkur respublikalar bilan birgalikda turkiy tilli davlatlar tashkilotini tuzish to'g'risida fikr yuritish ham mumkin bo'lmaganligi barchaga ayon. 1991 yilning oxirlariga kelib Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon mustaqillikka erishib, o'zining suverenitetini e'lon qildi hamda xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektiga aylandi.

Tili, madaniyati, qadriyatlari mushtarak bo'lgan turkiy xalqlarni birdamligi g'oyasi bugun paydo bo'lgan emas. Tarixiy ildizlariga ko'ra turkiy xalqlarning kelib chiqishi miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi.

Qadimdan turkiy davlatlar o'z davrining eng qudratli saltanatlaridan bo'lgan. Turkiy xalqlar dunyosi esa mutlaqo boshqacha, aytish mumkinki, o'zgacha



sivilizasiya. Qadimgi Turk sivilizasiyasi faqat ko'chmanchilikka asoslangan, deb hisoblovchi tadqiqotchilar tomonidan ular tarixi ham, davlatchiligi ham, madaniyati ham bo'lmagan, faqat tili yaqin qabilalarning aralashuvidan iborat etno-lingvistik birlik sifatida qaralib kelindi. Hozirgi kunda ham bir qator olimlar tomonidan qadimgi turklarga nisbatan «ko'chmanchi sivilizasiya» atamasi qo'llanilmoqda. Ko'chmanchilik qadimgi turklarning birlamchi hayot tarzi bo'lmagan va ularning katta qismi o'troq hayot kechirgan. Ularning ta'sirida turkiy til va turmush tarzi keng yoyila boshlagan, ilm-fan, madaniyat va san'at yuksak rivojlangan, ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Mazkur xalqlarning ulkan kashfiyotlari, nodir asarlari nafaqat turkiy tilli xalqlar, balki butun jahon sivilizasiyasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. O'rta Osiyo sarhadlarida moddiy, madaniy va arxeologik meros obyektlari tadqiqotlarida qo'lga kiritilgan birlamchi manbalar asosida qadimgi va o'rta asr madaniyatlari o'zaro aloqadorligida ulkan madaniy me'ros va innovasiyalar yaratilganligini ko'rsatadi. Turk sivilizasiyasiga mansub xalqlar dunyoda transport vositalari va harbiy ish rivojini yangi bosqichga olib chiqdi (2. 323-b). Ushbu ixtirolar dunyo miqyosidagi savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishiga, yirik migrasiyalarning amalga oshishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada Xitoydan to Yevropa mintaqasi oralig'ida joylashgan davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, ilm-fan rivoji uchun beqiyos ahamiyatga ega madaniy ayriboshlash jarayoniga ijobiy turtki berdi.

O'rta asrlarga kelib turkiy halqlarning jahon tamaddunlar rivojiga qo'shgan hissasi yanada salmoqli bo'ldi. Ma'lumki, o'sha davrlarning an'analariga ko'ra, ma'rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida panoh topganlar. Ular orasida IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi va "Baytulhikma", ya'ni "Donishmandlik uyi" degan nom bilan shuhrat qozongan Bag'dod akademiyasida samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunyoga dong taratdilar.

Turkiy davlatlar joylashgan mintaqada IX-XII va XIV-XVI asrlarda vujudga kelgan qudratli ilmiy-madaniy yuksalishlar jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri — Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Yevropa Uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika,



ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo'ldi. O'rta asrlarda faoliyat olib borgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, dunyo tarixidagi birinchi turkiy tillar lug'ati bo'lmish "Devoni lug'atit-turk" kitobi muallifi Mahmud Koshg'ariy lar barcha turkiy tilli xalqlar uchun qadrlidir (4. 37-b).

XIV-XVI asrlarda yashab ijod etgan Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Piri Rais-Xodjia Muxiddiin Piri ibn Xo'dja Maxmud va boshqa qator allomalar jahon sivilizasiyasi rivojiga uchun buyuk ishlarni amalga oshirdilar.

XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabida jahon tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan ilmiy kashfiyotlar qilindi. Ulug'bek vafotidan so'ng Mirzo Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi tomonidan davom ettirilgan. Turk sultoni Muhammad II (1451—81) taraqqiyparvar shaxs bo'lib, saroyga xizmatga taklif kiladi va olimlarga rahbar qilib tayinlaydi. Ali Qushchi Turkiyada olimlar, faylasuflar, shoirlarni o'z atrofiga to'plab, ilmiy ishlarni taraqqiy ettirishga intiladi, o'zi esa riyoziyot, falakiyot, falsafa, mantiq, adabiyot, musiqa va boshqa fan sohalaridan risolalar yozadi. Shu davrda jahon miqyosidagi oliy ta'lim tizimining eng namunali tizimlaridan biri turkiy dunyoda tashkil etildi.

XVI asrda Usmonlilar imperiyasida ham ta'lim tizimi rivojlanib, zamon ruhiga mos tarzda yanada rivojlantirildi. Mexmed madrasasi, Sulaymoniya tibbiyot madrasasi kabi ta'lim maskanlarida qator olimlar muhim kashfiyotlar qilishgan.

Turkiy xalqlar o'rtasidagi yaqinlik nafaqat mushtarak madaniyat, til, din va o'xshash qadriyatlar, balki qadimdan savdo aloqalari yo'lga qo'yilib, o'zaro bordi-keldi, hamkorlik qilib kelingani bilan ham bog'liq. Bu rishtalar sobiq ittifoq davrida uzilib qolgan, cheklangan bo'lsa-da, ammo sobiq ittifoq parchalangandan so'ng qonqardoshlik tuyg'usi yana eski o'zanini topdi. Madaniy-tarixiy aloqalardan tashqari turkiy tilli davlatlar o'rtasida so'nggi o'n yillikda amalga oshirilayotgan ishlar alohida tahsinga sazovor. O'zaro hamkorlikning rivojlanishida muhim o'rin tutgan turkiy tilli davlatlar kengashi rivojlanib borayotgan mintaqalararo tashkilotlardan biri hisoblanadi. Bizning davrimizgacha yetib kelgan bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo'lida oqilona va samarali foydalanish — bu siz bilan bizning vazifamiz, siz bilan bizning burchimizdir. Bu borada fidoyi olimlarning roli alohida diqqat-e'tiborga munosib bo'lib, aynan ularning mehnati tufayli biz o'tmishning bebaho ilmiy merosini qaytadan kashf etmoqdamiz. Bugungi kunda turkiy xalqlar yaratgan boy merosni, ularning jahon sivilizasiyasiga qo'shgan bebaho hissasini o'rganish va



amalda ommalashtirish bilan birga shu merosga munosib avlod sifatida choralar ko'rish ham muhimdir.

O'zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019 yilda "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan Bitimini ratifikasiya qilish to'g'risida"gi qonunni imzoladi.

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lib, faoliyatining asosi turkiy tilli mamlakatlar o'rtasida do'stlik va qo'shniçilikni mustahkamlash, hududda va jahonda tinçlikni saqlash, xavfsizlik va o'zaro ishonçni mustahkamlashga qaratilgan.

2009 yilning 3 oktyabrida Ozarboyjonning Naxichevan shahrida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'izistondan iborat to'rt davlat ishtirokida Turkiyazon davlatlarning hamkorlik kengashi tuzilgani e'lon qilingan bo'lib, uning faoliyati prinsiplari 2016 yil 16 sentyabrdagi Istanbul deklarasiyasida e'lon qilingan. Ushbu kelishuvdan keyin turkiy tilli davlatlar manfaatini birlashtiruvchi jiddiy tashkilot paydo bo'ldi. Endi bu xalqaro tashkilotga aylandi. Bu tashkilot tarkibidagi davlatlar tomonidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat va sportga oid barcha masalada o'zaro hamkorlik yangi pog'onaga ko'tarilmoqda. Ayni vaqtda xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga to'la javob beradigan iqtisodiyot, investisiya, innovasiya, transport va kommunikasiya, turizm, ilm-fan va ta'lim kabi sohalarda o'zaro hamkorlik faol rivojlanmoqda. O'zbekiston rahbarining Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ozarbayjon prezidentlari bilan uchrashuv va muloqotlari samarasida turli sohalardagi hamkorlik yanada rivojlandi. O'zbekistonning Turkiy kengashga a'zo davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi oxirgi bir yilda 40 foizdan ziyod oshdi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi doirasidagi aloqalarni rivojlantirishga doir muhim yo'nalishlar-savdo-iqtisodiy va investisiyaviy hamkorlikni kengaytirish, yetakchi sanoat korxonalari, bank-moliya institutlari va tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasida kooperasiya aloqalarini kuchaytirish barcha xalqlar manfaatiga xizmat qiladi. Transport yo'nalishlarining integrasiyalashgan tarmog'ini yaratish, dunyo va mintaqadagi asosiy bozorlarga chiqish masalasi ham manfaatlarimizga mos keladi. Turizmni rivojlantirish bo'yicha ulkan imkoniyatlar, madaniy-gumanitar aloqalar mustahkamligi ham xalqlarni yanada yaqinlashtirishini ta'kidlash o'rinli.

O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo mamlakatlar, avvalo, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni izchil rivojlantirayotgani, ushbu xalqaro tuzilmaning kelajagiga katta umid va ishonç bilan qarayotganidan dalolat beradi.



Turkiy kengashning kengayishi va uning xalqaro maydondagi nufuzining oshishi uchun yaxshi sharoit yaratadi, tashkilotga yangi nafas beradi hamda ko'plab yangilanishlar manbaiga aylanadi. Bugungi kunda 200 milliondan ko'p aholi nufuziga ega bo'lgan turkiy tilli halqlarning 50-60 foizi yoshlardan tashkil topgan. Bu ham turkiy davlatlarning katta potentsialga egaligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida alohida ta'kidlash kerak, yagona tarixiy o'tmishga ega, madaniyati yaqin, maqsadlari mushtarak, bir-biriga qo'shni va qulay geopolitik mintaqada joylashgan turkiy davlatlarning yangi bir tamaddun va tarix yaratishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов М. Валидий Тўғон – Туркистон тарихи тадқиқотчиси // Ёшлик. – Тошкент; 2001. - № 1. – Б. 44 – 45.
2. Валидий, Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар // Шарқ юлдузи. – Тошкент; 1993. - № 4 – 5. – Б. 101 – 120; № 6 – 7. – Б. 121 – 144; № 8 – 9. – Б. 110 – 128.
3. Германов В. А. Историки Туркистана в условиях политического террора 20 – 30 – Ташкент.
4. Наимов Н. Эгамназаров А. Амирнинг авлодлари // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1992. - № 3. – Б. 167 – 184.
5. Шаҳобиддин Яссавий. Туркистон аччиқ ҳақиқатлари (араб имлосида, эски ўзбек адабий тилида). Истанбул. – 1984. – 199 бет.
6. Жельтяков А. Изучения истории, экономики и культуры Турции в Ленинграде за 50 лет (1917-1967). Тюркологический сборник. М-1980. С-177-191.